



SAYLOV TIZIMI TUSHUNCHASI VA TURLARI: MOJARITAR, PROPORSIONAL, ARALASH SAYLOV TIZIMI.

**Muzaffarov Ikromjon
Nodirbek o'g'li**

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
ikromjon.muzaffarov01@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur ishda saylov tizimi tushunchasi va turlari, proporsional, mojaritar va aralash saylov turlarining mazmun-mohiyati, tizimdagi ahamiyati, shu bilan birga rivojlanish bosqichlari hamda saylovga oid qonunchilik normalarida tutgan o'zni haqida so'z yuritilgan. Shu bilan birga O'zbekiston tarixida saylov qonunchiligining o'ziga xos jihatlari, o'tgan davr mobaynida milliy saylov tizimi va saylov qonunchiligini izchil takomillashtirish borasida amalga oshirilgan islohotlar va o'zgarishlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Saylov, qonunchilik normalari, saylov turlari, mojaritar, proporsional, aralash, saylov tizimi, ovoz berish.

Demokratiyaning tarkibiy qismi hisoblangan saylov tizimi xalqchil, aholi uchun tushunarli va qulay bo'lishi lozim. Bunda saylovlar fuqarolarga ularning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etish imkoniyatini yaratadi.

Saylov tizimi – saylov o'tkazishga oid barcha qonun hujjatlari, saylov tizimi tamoyillari, fuqarolarning saylov huquqlarini o'z ichiga olgan saylov o'tkazish tartiblari va ularni belgilovchi qoidalar yig'indisi¹.

Rossiyalik olimlar I.V.Graf hamda D.G.Sharomskixlar tomonidan tayyorlangan "Xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy huquqi" darsligida saylov tizimi keng ma'noda saylov bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni bildiradi, deb ko'rsatilgan bo'lib, unda ham saylov tizimi faqat davlat organlariga saylov bilan chegaralanadi².

Alebastrova I.A. tomonidan tayyorlangan darslikda saylov tizimi keng ma'noda saylov bilan bog'liq barcha narsalarning yig'indisi hisoblanib, u o'z ichiga saylov huquqini va saylov o'tkazish amaliyotini ham oladi, degan ta'rif mavjud. Bu tushuncha ancha keng bo'lib, saylov tizimini to'laroq ifodalaydi. Chunki saylov bilan bog'liq barcha harakatlar yig'indisi saylov tizimini tashkil etishi haqiqatdir. Darsliklardagi yana bir fikrga asosan saylov tizimi barcha saylov o'tkazilishi bilan bog'liq tartiblar, tadbirlarni mustahkamlovchi, o'rnatuvchi huquqiy normalar yig'indisidir³.

¹ I.R.Bekov, X.I.Botirov Saylov tizimining Konstitutsiyaviy asoslari // o'quv qo'llanma. TDYU, T.: 2023. 34-b.

² И.В.Граф, Д.Г.Шаромских. "Конституционное право зарубежных стран"

³ Алебастрова И.А. и др. Конституционное право зарубежных стран: М.: Волтерс Клувер, 2006

Ularning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Bugungi kunda saylov tizimining keng tarqalgan quyidagi turlari mavjud: **majoritar** va **proporsional, aralash** saylov tizimi.

Majoritar (nomzod oddiy ko'pchilik ovozi bilan saylanadi) saylov tizimi asosida dunyoning 79 ta mamlakatida (Buyuk Britaniya, AQSh, Fransiya, Kanada, Hindiston va boshqalar) saylovlar o'tkaziladi.

Proporsional saylov tizimi esa, 75 ta xorijiy davlatlarda (Avstriya, Italiya, Braziliya, Niderlandiya, Shvetsiya, Finlandiya, Turkiya, Isroil va boshqalar) qo'llanib kelinmoqda. Proporsional saylov tizimi – deputatlik mandatlarini siyosiy partiyalar yoki ro'yxatlar asosida berilgan ovozlarga proporsional mutanosib ravishda partiyaviy ro'yxatlar o'rtasida taqsimlanadi, saylovchilar yakka nomzodlarga emas, partiyalarga ovoz beradi. Shu bilan birga, Janubiy Koreya, Rossiya, Germaniya, Gruziya, Yaponiya, Meksika, Avstraliya kabi davlatlarda parlamentlar aralash saylov tizimi (ayrim mandatlar majoritar va ayrimlari proporsional saylov tizimi bo'yicha) asosida shakllanadi⁴.

Majoritar so'zi fransuzcha so'z bo'lib, "majorite" - ko'pchilik so'zidan olingan.

Majoritar saylov tizimi deganda vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijasini aniqlash tushuniladi. Unda qonun bilan belgilangan ko'p ovozni olgan nomzod (yoki nomzodlar ro'yxati) muayyan okrug bo'yicha saylangan hisoblanadi. Hozirgi zamon konstitutsiyaviy huquqida nisbatan mutlaq va malakali ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar saylov tizimlari qo'llanadi. Mutlaq ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizimda berilgan va haqiqiy deb topilgan ovozlarning umumiy sonidan mutlaq (yoki oddiy) ko'p ovoz (ya'ni 50% +1 ta ovoz) olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Agar nomzodlardan birontasi ham yetarlicha ovoz olmasa, qayta ovoz berish o'tkaziladi, bunda nomzodlar ro'yxatida nisbatan ko'p ovoz olgan 2 ta nomzod qoldiriladi. Nisbatan ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizim eng soddagina tizim bo'lib, bunda nomzodlar orasidan o'z raqiblarining har biriga nisbatan ko'p ovoz olgani saylangan hisoblanadi. Bu tizimda ko'pincha saylovchilarning qo'llab quvvatlashiga ega bo'lmagan partiya parlamentda ko'p o'ringa ega bo'lishi mumkin. AQSh, Buyuk Britaniya va boshqa bir qancha davlatlarda majoritar tizimning ana shunday shakli qo'llanadi. Bir mandatli majoritar tizimda bir okrugdan bir deputat saylanadi⁵.

I.R.Bekov, X.I.Botirovlar Saylov tizimining Konstitutsiyaviy asoslariga to'htalar ekan, ular sharxlanayotgan saylov tizimiga quyidagicha fikr bildirganlar.

Majoritar saylov tizimi – hozirgi davrda juda keng tarqalgan saylov tizimlaridan biri majoritar saylov tizimi bo'lib, saylov natijalarini aniqlashda ko'pchilik ovoz prinsiplariga asoslanadi. Majoritar saylov tizimi, o'z navbatida, mutlaq, malakali va nisbatan ko'pchilik ovozga asoslangan saylov turlariga bo'linadi.

Majoritar tizim asosan siyosiy partiyalar hali uncha kuchli bo'lmagan, aholini o'z taraflariga og'dirish uchun tegishli ishlar amalga oshirmagan davlatlarda foydalidir. Bunday saylovda vakillik organlariga deputat bo'lib partiya a'zolari emas,

⁴ I.R.Bekov, X.I.Botirov Saylov tizimining Konstitutsiyaviy asoslari //o'quv qo'llanma. TDYU, T.: 2023. 36-37-b.

⁵ M.Ashurova. Olmaliq shahar adliya bo'limi YXKM boshlig'i. Majoritar saylov tizimi tushunchasi. <https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=68783>

partiya tomonidan ko'rsatilgan, so'zga chechan, notiq, xarizmatik, saylovchilarni o'z dasturiga ishonтира oladigan kishilar saylanadi.

Bu saylovda saylovchilar nomzodlarning qilgan ishlari, xizmatlari, dasturlarini taqqoslaydi va o'ziga ma'qulini tanlaydi. Bu tizimda okruglarda nomzodlar asosan partiya nomidan qatnashadi, lekin yakka asosda ovoz oladi, ovoz partiya uchun emas, shaxsan nomzodga beriladi. Majoritar tizimning ham ko'rinishlari har xil. Uning bir ko'rinishida boshqa nomzod larga nisbatan ko'proq ovoz olgan nomzod saylangan bo'ladi.

Bunda saylanish uchun qancha ovoz olish kerakligi ko'rsatilmagan. Bu ko'rinish AQSh, Buyuk Britaniyada qo'llanadi. Bu mamlakatlarning qonunlarida aksariyat ovoz berishda qancha saylovchi ishtirok etishi shartligi ham ko'rsatilmaydi. Angliya qonuniga asosan okrugdan bir nomzod ko'rsatilgan bo'lsa, saylovsiz saylanish mumkin, uning saylanishi uchun nomzodning o'z ovozi kifoya bo'ladi. Mutlaq ko'pchilik saylov tizimi shundan iboratki, nomzod saylangan deb hisoblanishi uchun u saylovchilarning yarmidan ko'pining qo'llab-quvvatlashiga erishishi, ya'ni 50%+1 saylovchilar ovozini olishi lozim. Masalan, saylov okrugida saylanish uchun 3 ta nomzod qo'yilgan (A,B,V). Berilgan 10 000 ovoz quyidagicha taqsimlandi: **A – 3000, B – 1990, D – 5010**. Bunda 5010 ovoz olgan D mutlaq ko'pchilik ovozi olgan hisoblanib, saylanadi. Mutlaq ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizimning o'ziga xosligi shundan iboratki, yuqorida keltirilgan misolda mutlaq ko'pchilik (5010) ovozi olgan D nomzod saylandi, qolgan ikki nomzodga berilgan (4990, salkam 50 %) ovoz esa "yo'qolib" ketadi va natijada A va B nomzodlarga ovoz bergan saylovchilar o'z vakillarini parlamentga o'tkaza olmaydilar.

Majoritar saylov tizimi deputatlarning bir okrugdan bitta nomzod saylanishi bilan (nomzodlar qancha bo'lishidan qat'i nazar), saylovchi aniq nomzodga yoqlab yoki qarshi ovoz berishi bilan xarakterlanadi. Bu ko'pchilik ovozlarning saylanadigan nomzodlarda bo'lishini nazarda tutadi. Ayrim mamlakatlarda majoritar tizimda saylanish uchun ko'pchilik ovozi talab etiladi.

O'zbekiston saylov tizimida 2023-yilgacha majoritar tizim amalda bo'lib, unga ko'ra shu tizimning ko'pchilik ovozi olish tartibi qo'llanildi. 2023-yil 6-mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev deputatlar bilan uchrashuvda siyosiy partiyalarning rolini oshirish maqsadida aralash saylov tizimiga o'tishni taklif qildi. O'zbekistonda saylov tizimi islohotiga bag'ishlangan katta qonun loyihasining muhokamasi boshlandi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yalpi majlisida birinchi o'qishda muhokama qilindi va deputatlar tomonidan tasdiqlanib,

10-oktabrdan 24-oktabrgacha keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi⁶.

Saylov tizimining ikkinchi ko'p tarqalgan turi **proporsional saylov tizimidir**. Proporsional saylov tizimi siyosiy partiyalar kuchli mamlakatlarda ko'plab uchraydi.

⁶ Majoritar-proporsional saylov tizimining o'ziga xos jihatlari. O'zbekiston Respublikasi markaziy saylov komissiyasining axborot xizmatidan. https://saylov.uz/oz/press_service_in/majoritar-proporsional-saylov-tizimining-o-ziga-xos-jihatlari

Proporsional saylov tizimida saylovchi aniq nomzod uchun emas, partiyalar taqdim etgan ro'yxatga ovoz berish bilan mamlakatdagi siyosiy partiyalarning olib borayotgan yo'lini, saylov dasturini ma'qullaydi.

Proporsional tizim natijasida tashkil qilingan parlamentlarda ko'pincha kam sonli deputat bilan kichik partiyalar o'rniga ega bo'lishi parlamentda kichik mayda fraksiyalarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi va bu hol parlamentda masalalar hal qilinishini qiyinlashtiradi.

Proporsional saylov tizimida qonunlarda siyosiy partiyalar, albatta, to'plashi kerak bo'lgan ovozlarning zarur miqdori belgilab qo'yiladi. Bu jamiyatda uncha ahamiyatga ega bo'lmagan partiyalarning, parlament va quyi vakillik organlarida o'rin olishga qo'yilgan to'siq hisoblanib, u turli mamlakatlarda turlicha (7 %, 5 %, 3 %) bo'lishi mumkin. Kam sonli deputat o'rinlari bilan parlamentni band qilish parlament ko'pchiligini tashkil qilishda muammolarni vujudga keltiradi. Ayniqsa, bu parlamentar respublikalarda jiddiy muammo bo'ladi. Bir necha partiya fraksiyalari birlashib ko'pchilikni tashkil etsada, bu birlikning (blok) buzilib ketishi oson bo'ladi. Ayrim mamlakatlarda to'siqlardan o'ta olmagan partiyalarning olgan ovozlari ko'p o'rin olib to'siqdan o'tgan partiyalar o'rtasida taqsimlanadi. Ayrim mamlakatlarda esa ovozlari kuyib ketadi.

Davlat yagona saylov okruglari deb e'lon qilinadi. Siyosiy partiyalar va harakatlar, ularning ittifoqlari (saylov uyushmalari, bloklari) o'z nomzodlari ro'yxatini ilgari surishadi. Saylovchi siyosiy partiya, harakatlar ularning rahbar va a'zolariga bo'lingan munosabatidan kelib chiqqan holda shunday ro'yxatlardan biriga ovoz beradi.

Saylovlarda ishtirok etgan saylovchilar ovozi umumiy soni proporsional saylov tizimi bo'yicha deputatlar mandatining umumiy soniga bo'linadi va buning natijasida xususiy saylov degan ma'no hosil bo'ladi. So'ng har bir nomzod uchun berilgan ovozlar soni xususiy saylovga bo'linadi. Shunday qilib, partiyalar, harakatlar vakillik organida qancha o'rin olganliklarini bilib oladilar. Ro'yxat ichidagi o'rinlarni (mandatni) nomzodlar birinchisidan boshlab navbatga ko'ra oladilar. Agarda ro'yxat markaziy qism va mintaqaviy guruhlariga taqsimlangan bo'lsa, unda birinchi bo'lib parlamentga markaziy qism nomzodlari o'tishadi.

Xorijiy mamlakatlarda proporsional saylov tizimi deputat saylashda (parlament va mahalliy hokimiyat organlari) qo'llanadi. Prezident saylovida esa faqat majoritar tizim amal qiladi. Chunki unda nomzod qaysi partiyadan ko'rsatilsin (bir partiya faqat bitta nomzod ko'rsata oladi) saylovchi partiyaga emas, aniq nomzodga ovoz beradi. Xorijiy mamlakatlarning saylov tajribasida bir tartibdan ikkinchisiga o'tish holati uchraydi.

Saylov tizimining yana bir ko'p tarqalgan turi aralash saylov tizimidir. Hozirda Rossiya Davlat Dumasining (quyi palata) 450 deputatining 225 tasi majoritar tizim bo'yicha, 225 tasi proporsional tizimda 5 yilga saylanadi. Germaniya Bundestagiga esa 598 deputatning 299 tasi majoritar tizim bo'yicha, 299 tasi proporsional tizimda 4 yilga saylanadi.

Aralash saylov tizimida mamlakatlarda o'tkaziladigan saylovlarda majoritar tizim ham, proporsional tizim ham qo'llanadi. Bu oliy va mahalliy vakillik organlarining bittasi majoritar tizim orqali, bittasi proporsional tizim orqali tashkil

etiladi yoki bitta vakillik organini tashkil etishda ikkala tizimdan ham foydalanish mumkin.

XULOSA

Mamlakatda qaysi saylov tizimidan foydalanishni konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yiladi. Bu tizimning ijobiy tomoni proporsional tizimda partiya ro'yxati bo'yicha deputat bo'la olmagan, lekin ko'zga ko'ringan, ko'pchilikka yoquvchi partiya boshchilari (liderlar) majoritar tizim orqali parlamentga deputat bo'lib saylanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xorijiy mamlakatlarning saylov o'tkazish tajribalarida yana boshqa saylov tizimlari, ovoz berish, natijalarni aniqlashning boshqacha usullari ham mavjud.

2023-yil oktabr oyida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. Qonun loyihasida saylov tizimini takomillashtirishga oid bir qancha yangiliklar bor. Xususan Saylov kodeksiga asosan, Qonunchilik palatasiga saylovlar kelgusida aralash saylov tizimi asosida o'tishi rejalashtirilmoqda. Bungacha O'zbekistonda parlament saylovlari majoritar tizim bo'yicha o'tkazilib, unda o'z saylov okrugida ko'pchilik ovoz olgan nomzodlar saylangan deb hisoblanardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. J.O.Saidov JDPI, Tarix va uni o'qitish metodikasi stajyor-o'qituvchisi. "Qadimdan to hozirgi davrgacha saylov jarayonining sayqallanishi".

2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi axborot xizmati.

3. D.D.Adxambayevna Saylovning kelib chiqish tarixi.

4. "Ochiq ensiklopediya". (Vikipediya)

5. "Qadimda saylovlar qanday o'tkazilgan"

6. "Qadimgi Rimda diplomatiya va xalqaro munosabatlar"

7. Afinada Solonning islohotlari va Demokratiyaning yuksalishi

Elektron manbaalar

1. <http://old.saylov.uz/oz/docs/2016-jil-4-dekabr-kuni-bolib-otgan-ozbekiston-respublikasi-prezidenti-sajlovi>

2. <https://uz.eferit.com/afinada-solonning-islohotlari-va-demokratiyaning-yuksalishi/>

3. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/tarix/qadimgi-rimda-xalqaro-munosabatlar-va-diplomatiya>